

IQLIM O'ZGARISHI VA EKOLOGIK INQIROZLAR

Abierova Muhayyo Sanjar qizi

JDPU talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada iqlim o'zgarishi jarayonlari va ularning global hamda mintaqaviy ekologik muammolar tahlil qilinadi. Dunyo miqyosida atmosfera haroratining ko'tarilishi, muzliklarning erishi, cho'llanish jarayonlari, suv tanqisligi hamda biologik xilma-xillikning qisqarishi kabi omillar ekologik inqirozlarning chuqurlashuviga olib kelmoqda. Shuningdek, iqlim o'zgarishining ijtimoiy-iqtisodiy hayotga, xususan, qishloq xo'jaligi, energetika va inson salomatligiga ta'siri yoritib beriladi. Maqolada xalqaro hamkorlik, ekologik siyosat, yashil texnologiyalar va barqaror rivojlanish strategiyalarining iqlim o'zgarishiga qarshi kurashdagi o'rni ham ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijalari iqlim muammolarini ilmiy asosda o'rganish va ularga qarshi samarali choralar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *iqlim o'zgarishi, ekologik inqiroz, barqaror rivojlanish, biologik xilma-xillik, yashil texnologiyalar.*

Аннотация: *В статье анализируются процессы изменения климата и их влияние на глобальные и региональные экологические проблемы. Такие факторы, как глобальное потепление, таяние ледников, опустынивание, дефицит воды и утрата биоразнообразия, приводят к углублению экологических кризисов. Также рассматривается влияние изменения климата на социально-экономическую жизнь, в частности, на сельское хозяйство, энергетику и здоровье человека. В статье также освещается роль международного сотрудничества, экологической политики, «зелёных» технологий и стратегий устойчивого развития в борьбе с изменением климата. Результаты исследования имеют большое значение для научного изучения климатических проблем и разработки эффективных мер борьбы с ними.*

Ключевые слова: *изменение климата, экологический кризис, устойчивое развитие, биоразнообразие, зеленые технологии.*

Abstract: *This article analyzes climate change processes and their impact on global and regional environmental problems. Factors such as global warming, melting glaciers, desertification, water scarcity, and biodiversity loss are leading to deepening environmental crises. It also highlights the impact of climate change on socio-economic life, in particular, on agriculture, energy, and human health. The article also highlights the role of international cooperation, environmental policy, green technologies, and sustainable development strategies in combating climate change. The results of the study are of great importance for the scientific study of climate problems and the development of effective measures to combat them.*

Keywords: *climate change, ecological crisis, sustainable development, biodiversity, green technologies.*

Bugungi kunda yer yuzida iqlim o'zgarishi jarayonlari va ularning global hamda mintaqaviy ekologik muammolar ko'paymoqda. Dunyo miqyosida atmosfera haroratining ko'tarilishi, muzliklarning erishi, cho'llanish jarayonlari, suv tanqisligi hamda biologik xilma-xillikning qisqarishi kabi omillar ekologik inqirozlarning chuqurlashuviga olib kelmoqda. Shuningdek, iqlim o'zgarishining ijtimoiy-iqtisodiy hayotga, xususan, qishloq xo'jaligi, energetika va inson salomatligiga ta'siri yoritib beriladi.

Iqlim o'zgarishi jarayonlari – bu Yer atmosferasi, okeanlari va ekotizimlarida sodir bo'layotgan uzoq muddatli va tizimli o'zgarishlarni anglatadi. Ushbu jarayonlar tabiiy omillar ta'sirida ham, inson faoliyati natijasida ham yuzaga keladi. Asosiy jarayonlar quyidagilar:

1. Global isish

– Atmosferaga issiqxona gazlari (CO_2 , CH_4 , N_2O)ning ortiqcha chiqarilishi natijasida Yer yuzasi harorati ko'tarilib bormoqda. Bu iqlim o'zgarishining markaziy jarayonidir.

2. Atmosfera aylanishidagi o'zgarishlar

– Shamollar, havo massalari va atmosfera bosimining global taqsimoti o'zgarib, qurg'oqchilik yoki kuchli yomg'ir kabi ekstremal ob-havo hodisalarini ko'paytiradi.

3. Qutb muzliklari va muzliklarning erishi

– Antarktida, Arktika va tog' muzliklari tez erib bormoqda. Bu dengiz sathining ko'tarilishiga olib kelmoqda.

4. Okean jarayonlari

– Okeanlar issiqlikni va karbonat angidridni yutib, asta-sekin isib bormoqda. Bu okean kislotalanishi va marjon riflarning yemirilishiga sabab bo'lmoqda.

5. Ekstremal hodisalar kuchayishi

– To'fonlar, bo'ronlar, issiq to'lqinlar, o'rmon yong'inlari va qurg'oqchilik kabi hodisalar tez-tez uchrayapti.

6. Ekotizimlarning buzilishi

– Ko'plab hayvon va o'simlik turlari yashash hududini yo'qotmoqda, migratsiya va moslashuv jarayonlari tezlashmoqda.

7. Dengiz sathining ko'tarilishi

– Muzliklar erishi va okean suvlarining kengayishi natijasida qirg'oqbo'yi hududlar suv ostida qolish xavfi ortmoqda.

Havo tarkibida karbonat angidridning oshishi, chiqindi gazlarning me'yoridan ortiq havoga chiqarib tashlanishi oqibatida issiqxona effekti hosil bo'lib, bugungi kunda jahon hamjamiyatini tashvishga solayotgan jiddiy ekologik muammo — global iqlim o'zgarishi yuzaga keldi.

Aholi sonining o'sishi, fan va texnika taraqqiyoti, inson ehtiyojlarining ortishi oqibatida er yuzida qator ekologik muammolar yuzaga keldi. Shu bois, bugungi kunda sof tabiat haqida gap yuritish mushkul. Er yuzidagi o'rmonlar ko'payish o'rniga tobora qisqarib bormoqda, katta-katta tabiiy hududlar dehqonchilik qilish maqsadida

o'zlashtirildi, tabiat va havo har xil chiqindi hamda gazlar hisobiga ifloslanyapti. Bundan tashqari, tabiatda toshqinlar, o'rmon yong'inlari, chang bo'ronlari va boshqa tabiiy jarayonlar yuz bermoqda. Bularning barchasi pirovardida tabiat muvozanatiga putur etkazyapti. Shu bois, davlatimiz rahbari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida jahon hamjamiyati e'tiborini yana bir bor davrimizning o'tkir muammolaridan biri — Orolbo'yi hududidagi ekologik holatga qaratib, jumladan, bunday dedi: “Bugungi kunda har bir mamlakat bu jarayonning salbiy ta'sirini his etmoqda. Ming afsuski, bunday o'zgarishlar Markaziy Osiyo taraqqiyotiga ham katta xavf tug'dirmoqda”.

Muayyan geografik hududning o'ziga xos iqlimi, ijtimoiy-ekologik, etnografik xususiyatlari tabiat bilan inson o'rtasidagi o'zaro aloqa va munosabatlar xarakterini belgilab beradi.

Ekologik xavf bugungi kunda tobora keng tus olib, er yuzidagi barcha mamlakatlarni bu haqda chuqurroq o'ylashga majbur etmoqda. Jahon yovvoyi tabiat (WWF), Global Footprint Network jamg'armalari va Londonning zoologik jamiyati mutaxassislari hamkorlikda o'tkazgan tadqiqot natijalariga ko'ra, 1970 yildan buyon dunyoda yovvoyi hayvon va qushlarning soni 3,43 ming turga, tirik sayyoraning indeksi esa 52 foiz (havo va quruqlikda yashaydigan jonivorlar turi 76 foiz, er usti va suvda kun kechiradiganlar soni 39 foiz) qisqargan. Har yili 11 million gektar tropik o'rmon kesilmoqda. Yo'qotishlar o'rmonlarni tiklash ishlariga nisbatan 10 barobar ko'pdir. Har kuni atmosferaga 60 million tonnaga yaqin karbonat angidrid chiqarilishi dunyo okeanidagi suv sathining ko'tarilishiga olib kelmoqda.

Havo tarkibida karbonat angidridning oshishi, chiqindi gazlarning me'yoridan ortiq havoga chiqarib tashlanishi oqibatida issiqxona effekti hosil bo'lib, bugungi kunda jahon hamjamiyatini tashvishga solayotgan jiddiy ekologik muammo — global iqlim o'zgarishi yuzaga keldi. SHuningdek, ozon qatlaminining emirilishi, dunyo okeanining ifloslanishi, tuproq unumdor qatlaminining yo'qolib borishi, tropik o'rmonlarning kesilishi, cho'llanish, chuchuk suv manbalari va bioxilmaxillikning kamayishi, maishiy chiqindilarning ko'payishi, kimyoviy va toksik moddalarni zararsizlantirish kabi ekologik inqirozlar allaqachon bir davlat chegarasidan chiqib, tom ma'noda global ekologik muammolarga aylandi. Hozirgi kunda sanoat korxonalariga faqat sifatli mahsulot ishlab chiqarish emas, balki atrof-muhitga zarar etkazmaslik ham asosiy talablardan biri sifatida qo'yilmoqda. Shu bois, Toshkent kimyo-texnologiya institutida sanoat korxonalarida hosil bo'layotgan chiqindilarni tozalash bo'yicha bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilyapti. Jumladan, “ALUTEX” O'zbekiston—Britaniya qo'shma korxonasida ishlab chiqarish suvlarini tuzsizlantirish, mahsulotga rang berish jarayonida hosil bo'ladigan chiqindilarni tozalash bo'yicha xo'jalik shartnomasi asosida ilmiy ish olib borilmoqda. Bundan tashqari, shahar kanalizatsiya suvlarini tozalash stansiyalarida hosil bo'ladigan cho'kmalarni bartaraf etish bo'yicha hamkorlik ishlari yo'lga qo'yilgan. 1992 yil iyun oyida Rio-de-Janeyroda bo'lib o'tgan BMTning Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha konvensiyasi va konvensiya

natijasida qabul qilingan global isish, resusrlardan oqilona foydalanish va biologik xilma-xillikning yo'qolishini oldini olish kabi muammolar bo'yicha global ekologik tashvishlar jahon siyosiy kun tartibida muhim o'rin egalladi.

Darhaqiqat, 1972 yilgi Stokgolmdagi "Inson va atrof- muhit" konvensiyasi va 1992 yilgi BMT Konvensiyasi o'rtasidagi yigirma yil ichida nafaqat mahalliy, ham global miqyosda inson faoliyatining atrof-muhitga tahdidlarini oldini olishda yuzasidan davlatlarga majburiyat yuklandi. Ekologik muammolarni tartibga soluvchi, energiyadan, chuchuk suv zaxiralaridan foydalanish, o'rmon ekotizimlarini asrashda xalqaro huquqiy hujjatlarning ijrosini ta'minlashga kirishildi.

Misol tariqasida keltirishimiz mumkinki, Burhenne 1974a, 1974b, 1974c; Hohmann 1992; Molitor 1991 yildagi ko'p sonli ekologik shartnomalar tabiiy resusrlar, transchegaraviy suvlardan foydalanishni tartibga soluvchi normalar vazifasini bajarmoqda.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, global iqlim o'zgarishi bu hududlarni tartibsiz yog'ingarchilik yoki cho'llashib borayotgan hududlar minglab qishloq aholisining suv tanqisligiga duch kelishiga sabab bo'lmoqda. Insoniyat ushbu ekologik muammolarni oldini olish choralarini ham ko'rishi kerak. Misol uchun, daraxtlarni ekish uglerod chiqindilari va ifloslanishni muvozanatlashtiradi.

O'rmonlarning kesilishi global isish sabablari bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi. Global iqlim o'zgarishining salomatlikka ta'siri haqida hali ham ko'p narsa noma'lum. Eng muhimi, eng yaxshi natijalarga erishish uchun avvalo, to'g'ri ekologik siyosat olib boradigan tashkilot tuzilishi, xalqaro ekologik boshqaruvni yo'lga qo'yilishi kerak.

Buning uchun, ushbu tashkilot har bir davlatga issiqxona gazlarining qisqartirish, global isishni sekinlashtirish yuzasidan konsepsiya ishlab chiqib uni ijrosini ta'minlash, global o'rmonlarni tiklash va kengaytirish majburiyatini yuklashi kerak.

Zero, o'zimiz yashab turgan ona yerni asrab, tabiat in'om etgan ne'matlardan oqilona foydalanish, nafas olayotgan atmosfera havosini musaffo saqlash har birimizning burchimiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Younas, Ammar, Recent Policies, Regulations and Laws Related to Artificial Intelligence Across the Central Asia (August 1, 2020). Ai Mo Innovation Consultants, 2020, Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3664983>

2. Younas, Ammar. "Sustaining Innovative Economy in Fourth Industrial Revolution: A Whitepaper of Uzbek Centered Artificial Intelligence Policy (February 01, 2020)." Available at SSRN 3533410.

3. Younas, Ammar, and Kinza Fatima. "REGULATING NANOTECHNOLOGY TRANSFER IN DIGITALIZED CENTRAL ASIA." DEVELOPMENT ISSUES OF INNOVATIVE ECONOMY IN THE AGRICULTURAL SECTOR (2021): 744-746.

4. Younas, Ammar, et al. "Overview of big data and cloud computing laws, regulations and policies in central Asia." Regulations and Policies in Central Asia (August 12, 2020) (2020).

5. Younas, Ammar. "Finding a consensus between philosophy of applied and social sciences: A case of biology of human rights." JournalNX A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. ISSN 2581-4230 (2020): 62-75.

6. Askarovna, S. M. (2023). A BRIEF OVERVIEW OF THE DEVELOPMENT OF THE LEXICALCONCEPTUAL FIELD OF ETHICS IN THE XVIth-XVIIIth CENTURIES. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS, 3(26), 25-31.

7. Younas, A. "Legality of Rule of Law with Chinese Characteristics: A Case of "Ultra-Sinoism". Russian Law Journal. 2020; 8 (4): 53-91."